



## NAMANGAN SHEVALARIDA BA'ZI QARINDOSHLIKKA OID TERMINLAR

**Aminjonova Malika Abdurasul qizi**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20797923>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

### KEY WORDS

*Nikoh, kenjaba, qarindosh, tojik tili, aba, amaki, uda, pochcha.*

### ABSTRACT

*Namangan shevalarida (xususan, Namangan shahar va atrofidagi dialektlarda) qarindoshlik terminlari o'zbek adabiy tilidan bir qancha fonetik, leksik va semantik jihatdan farqlanadi. Bu farqlar asosan tojik tili aholi yashaydigan hududlarga yaqqol seziladi. Qarindoshlik terminlari ikki asosiy guruhga bo'linadi: qon-qarindoshlik (nikohgacha) va quda-andachilik (nikohdan keyin hosil bo'lgan) terminlarga bo'lib o'rganilgan.*

Insoniyat yaratilibdiki, uning tili hamisha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy tamoyillar bilan birga jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang holda taraqqiy etadi, rivojlanadi. Bu ilm-fan uchun ma'lum hodisa. Dunyo tilshunoslik sohasida jahonning yirik tilshunoslik maktablarining tarixiy shakllanish davriga e'tibor berilsa, ularning ilk amalga oshirgan va tadqiqotlarining markazida xalq jonli tili – madaniylashgan xalq darajasiga ko'tarilgan millatlarning shevasi turadi. Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

Namangan o'zbek shevalarida mavjud bo'lgan qarindoshlik terminlari fonetik, morfologik va leksik tizimga ko'ra deyarli barcha o'zbek shevalaridan farqlanib turadi. Jumladan: aba, ayal, singil abacha, singil aba, kinchabi, acha, ova, deda, dedo kabi terminlar boshqa o'zbek shevalarida shu ma'noda ishlatilmaydi. Umlautli shahar tip shevalarida nikohdan keyin hosil bo'lgan qarindoshlik terminlarining boshqa shevalardagidek qaynog'a, qayin singil, qayin bika shaklida diferentsiatsiya qilinmaydi.

Dunyoga taniqli etnograf olim L.G. Morgan birinchi bo'lib dunyo tillarida mavjud bo'lgan qarindoshlik terminlari va qarindoshlik sistemasi asosida ilmiy o'rganish boshlab bergan

A.N. Borovkovning qayd qilishicha, Namangan shevasining shakllanishida XVI-XVII asrlarda Axsikentdan kelgan o'zbeklar asosiy rol o'ynaydi hamda namanganga ko'chib kelgan uyg'urlar va forslar unga ko'maklashadi. Namangan shevasi XIX asrda shakllanib bo'lgan.

Viloyat shevalarida adabiy tildagi ota termining qo'llanish doirasi juda chegaralangan bo'lib Faqat To'raqo'rg'on tumanidagina Dada termini bilan parallel ishlatiladi. Chust, Pop,

Kosonsoy, Zadaryo, Uchqo'rg'on tumanlarida esa deda, Yangiqo'rg'on tumanida esa aka termini qo'llaniladi.

Boba-otaning yoki onaning otasi ma'nosida adabiy tilda qabul qilingan termin sifatida keng qo'llaniladi. Lekin boba termini Namangan viloyat shevalarida qo'llanish doirasi juda chegaralangan bo'lib, faqat Pop tumani mintaqasidagina shu ma'noda ishlatiladi xolos. Qolgan tumanlarida esa turli terminlar orqali ifodalanadi. Jumladan, Chust tumanida opoqi, Kosonsoyda opoqdeda, To'raqo'rg'onda, Namangan va Yangiqo'rg'on tumanlarida katta otakattata, Namangan shahrida opoda || opo-dda, Uychi, Chortoq, Uchqo'rg'on tumanlarida opo:dda, Zadaryo va Norin tumanlarida ota terminlari orqali ifodalanadi.

O'zbek adabiy tilida ona, ena terminlari ona ma'nosida qo'llaniladi. Namangan o'zbek shevalarida ham turli shakllarda qo'llanadi. Masalan: ana, ena, enne, ene, buve, ope\ opeete, buvi, eje. Buvimla kolxozga yordam vosin dep, uyda chuja boxiaptila- Onamla kolxozga yordam bo\sin deb uyda jo'ja boqyaptilar (Mingbuloq): Birinchi matta opamla maktabga borsang dep bozordan jimpir olib berdila (Norin): Yigit mo'li yedda, qoying ba xo'tun degani shunaqa bo'sa o'ylanmaum, deb yuraverdim kabi. Faktlarning ko'rsatishicha Namangan shevalari tuzilishiga ko'ra rang-barang bo'lib, ayrim xakas, yoqut, tatar tillarini istisno qilganda, deyarli o'g'uz, qipchoq va qarluq tillariga xos xususiyatlarni o'zida aks ettirgan.

O'zbek tilining qipchoq tip shevalari uchun umumiy bo'lgan qarindoshlik termini ena Pop, Norin tumanlarida adabiy orfografiyada moma o'rnida qo'llaniladi. Chust buvi, Kosonsoyda, To'raqo'rg'onda katta ena- kattaena. Namangan, uchqo'rg'on Acha termini, Uychi, Chortoq tumanida opo:cha-opa\cha, Zadaryo, Yangiqo'rg'onda anna, Namangan tumanida ena\anna parallel ishlatilib moma ma'nosini anglatadi.

Biz o'rganayotgan viloyat shevalarida adab. Orf. Ona termini ma'nosini anglarish uchun boshqa o'zbek shevalarida qayd qilinmagan yoki ulardan farq qiluvchi variantlari ishlatiladi. Pop, Kosonsoy, Namangan tumanlarida ona ma'nosini ifodalash uchun aya termini ishlatilsa, Chust tumanida buvi\opa terminlari To'raqo'rg'on tumanida ena. Namangan umlautli shevalar: Namangan shaxri, Chortoq, Uchqo'rg'on va Mingbuloq tumanlarida aba, Yangiqo'rg'on tumanida aya shakli ishlatiladi.

Aka, oka, og'o, egachi terminlarining o'zagi bir bo'lib, ke\ka-katta, ulug', buyuk kabi ma'nolarni anglatuvchi so'z asosida yaratilgan. Etimologiya bilan shug'ullangan olimlarning fikricha, qarindoshlik terminlari nikohgacha bo'lgan katta, buyuk, ulug', baland ma'nolarni anglatuvchi so'zlar asosida yaratilib, so'ng ular qarindoshlik terminlarini anglati boshlagan.

Amaki- qarindoshlik munosabatini anglatuvchi termin sifatida turkey tillar doirasida juda cheklangan. O'zbek tili va uning shevalarida esa keng qo'llaniladi. Namangan shevasida amaki termini boshqa shevalardan farqli o'laroq uch xil termin orqali ifodalanadi. Pop, Kosonsoy, To'raqo'rg'on va Norin tumanlarida amaki Chust, Mingbuloq, Uychi, Chortoq, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida ova; Namangan shaxri va Namangan tumanlarida aka terminlari orqali ifodalanadi.

Amma termini odatda otaning opa-singillarini atash uchun ishlatiladi. Namangan shevasi bu xususiyati bilan o'zbek shevalari bilan umumiy bo'lib, atalishida farq qilmaydi.

Xola qarindoshlik munosabatini ifodalovchi termin turkiy tillar sistemasida tutgan o'rniga ko'ra amma, amaki terminlari kabi alohida xususiyatga ega. Sababi boshqa turkey tillarda xola termini onaning opa-singlisi ma'nosini anglatish uchun qo'llanishi qayd qilinmagan.

Tog'a. O'zbek adabiy tili va uning shevalarida tog'a qarindoshlik termini, anglatgan ma'nosiga ko'ra turg'un bo'lib ona tomon aka-ukalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Tog'a termini dastlab to-|ota|+ga|n|-katta-katta ota| ota tomon | ma'nosini anglatib, yillar osha turli fonetik variantlarda, bizhacha onaning aka-ukalari ma'nosini anglatuvchi qarindoshlik termini sifatida yetib kelgan.

Singil-o'zbek tilida qarindoshlik atamasi. Namangan shevalarida so'zlovchidan kichik yoshdagi qiz Bolani anglatadi

Nikohdan keyin hosil bo'lgan qarindoshlik terminlari.

Er. Qarindoshlik termini o'zbek tili va uning shevalarida bo'lganidek, Namangan shevasida ham mavjud bo'lib anglatgan ma'nosiga ko'ra ulardan farq qilmaydi.

Namangan shevalarida ham turkey tillarda qayd qilingan er,erkak, erlik, er yigit kabi ma'nolarini anglatgan xususiyati mavjud.

Xotin Namangan umlautli shevalarida xotin termini boshqa o'zbek shevalarida qayd qilinmagan Xotun Xetin shaklida ishlatiladi.

Quda Qarindoshlik termini finetik variantlari bilan turkey tillarning deyarli barchasida mavjud. Namangan shevalarida ham quad termini o'zbek shevalarida bo'lganidek, ikki tomonkelin-kuyov, ota-onalari ma'nolarini anglatadi. M: Qudalarimiz minan ja ahilmiz.

Namangan shevalarida qudalarni jinsiy farqlash kerak bo'lganda er, xotun aniqlovchilari qo'shib ishlatiladi. Qudalar ikkita va undan ortiq bo'lganda ayol qudasini ko'rsatish uchun uni qudacham termini orqali ifodalaydi.

Kuyov termin sifatida deyarli barcha turkey tillarda mavjud bo'lib har bir til va uning shevalari fonetik qonunlari asosida koplav fonetik variantlarga ega. Namangan o'zbek shevalarida kiyuv, kiyop variantlari bilan qizning eri ma'nosini anglatadi.

Qayin termini turkey tillarning deyarli barchasida mavjud. Uning fonetik variantlari ham ko'p emas. Namangan umlautli shevalarida qeyin shaklida talaffuz qilinadi Bu fonetik xususiyati bilan Namangan shevasi uyg'ur, taranchi vaqochin tillari bilan umumiylikka ega. Norin tumani-Qaynimmi. To'raqo'rg'on- Qaynimdi.

Qayn termini bilan yasalgan qarindoshlik terminlari:

Qaynata\\qaynota

Qaynona. Uychi tumani- Qayanam\\ Chortoq tumani- qaynnem\\ Pop tumani- Qayne\\ Namangan- qaynene.

Qayin-og'a Namangan o'zbek shevalarida qaynag'a, qaynog'a shakllari mavjud.

Qayin termini qarindoshlik ma'nosini anglatuvchi singil termini bilan birikib qayinsingil, qayinopa shaklidagi qo'shma termin yasaldi.

Boja O'zbek adabiy tili va uning shevalarida bo'lganidek, Namangan shevasida ham boja termini opa- singillarning erlarini bir-birlariga qarindoshlik munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Pochcha O'zbek tili va uning shevalaridan farqli Namangan umlautli shevalarida pochcha termini faqat o'zidan katta ayolga tegishli bo'lgan (erkak) ernigina emas balki katta yoshdagi yigit va ayol hamda singillarining kuyovlari, jumladan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan ham ishlatiladi. Namangan shahar vakillari esa tuman shevalaridan ozgina bo'lsa ham farqlash maqsadida kichkina kuyov pochcha deb ataydilar

Ovsin. O'zbek adabiy tili va uning shevalari uchun ovsin\\ovsun shakllari umumiy bo'lib, Namangan shahar umlautli shevalari esa uning evsin\\evsun variant ishlatiladi.

Kinchabi Turkiy tillarning barchasida uzatilib kelgan qizga nisbatan kelin termini ishlatiladi. Namangan shevalarida turlicha formalarda qo'llanadi: kelin-oyi, kinchabi, yanga, aya, oya kabi.

Uda. Namangan shevalarida oilada ketma-ket, yiliga yetib-yetmay tug'ilgan bolalarni uda deb ayatdilar.

Jiyan termini o'zbek tili va uning shevalarida bo'lganidek, Namangan shevalarida ham opa-singillarning farzandlarini ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Jinsiy farqlash uchun aniqlovchi so'z o'g'il jiyan, qiz jiyan qo'shib ishlatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Дарвишов И. Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи. Фил. фанл. бўйича фалс. докт. ... дисс. – Фарғона, 1918. – 147 б.
3. Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз яшашнинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро та'сири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967. – Б.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm Ziyο, 2015. – 359 b.
5. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 302 б.
6. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – 277 б.
7. Юсупов Қ. Ўзбек ва Тожик тилларининг ўзаро алоқаси // Учение записки IV Филологическая серия. – Фарғона, 1957.
8. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди. ... дис. – Т., 1995. – 138 с.